



SOMONIYLAR DAVRI SAMARQANDI: BUYUK IPAK YO‘LIDAGI STRATEGIK MARKAZ SIFATIDA

Niyazova Mexrangiz Alisherovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Somoniylar davrida Samarqandning Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi strategik mavqeini tahlil qilib, uning xalqaro savdo, hunarmandchilik va pul muomalasidagi yetakchi rolini yoritadi. Tadqiqot shuningdek Samarqanddagi madrasalar, kutubxonalar va ilmiy maktablarning shakllanishi orqali shahar IX–X asrlarda islom sivilizatsiyasining muhim intellektual markaziga aylanganini asoslaydi. Manbaviy ma’lumotlar tahlili Samarqandning iqtisodiy va madaniy rivoji “Ikkinchi Uyg‘onish” jarayonining poydevorlaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Somoniylar davlati va hukmdorlari, Samarqand shahri, Movarounnahr, Buyuk Ipak yo‘li, iqtisodiyot hayot, madaniyat hayot, hunarmandchilik va to‘qimachilik, dirham, madrasa va kutubxona, Hanafiylik, Uyg‘onish.

Somoniylar davlati IX asr ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson hududlarini birlashtirib, O‘rta Osiyo tarixida yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Sulola asoschisi Ismoil ibn Ahmad davrida Buxoro siyosiy markazga aylangan bo‘lsa-da, Samarqand iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqeini saqlab qoldi. Nasr ibn Ahmadning dastlab Samarqand hokimi sifatida faoliyat yuritishi shahar taraqqiyotiga muhim ta’sir ko‘rsatgan.[1]. Somoniylar arab bo‘lmagan mahalliy sulola sifatida ilm-fan va madaniyatni faol qo‘llab-quvvatladi, bu esa o‘z navbatida Sharq Uyg‘onishining ilk bosqichini shakllantirdi.



Samarqandning yuksalishida Buyuk Ipak yo‘li alohida o‘rin tutgan. Shahar Sharq va G‘arbni bog‘lovchi asosiy savdo tarmoqlari chorrahasida joylashgani bois, IX–X asr geograflari uni “dunyoning turli burchaklaridan savdogarlar keladigan markaz” sifatida tasvirlaydi[2]. Savdo yo‘llarining Samarqand orqali o‘tishi davlat daromadining o‘rishiga xizmat qilgan bo‘lib, Somoniylar xazinasining yillik tushumi 45 million dirhamga yetgani manbalarda qayd etilgan[3]. Karvon yo‘llari bo‘ylab rabotlar, karvonsaroylar va quduqlar qurilishi xalqaro savdoni yanada rivojlantirgan.

Samarqandning iqtisodiy hayotidagi eng muhim sohalardan biri qog‘oz ishlab chiqarish bo‘lib, “Hudud al-olam” asari muallifi shahar qog‘ozining sifatini alohida ta’kidlaydi va uning Bag‘dod, Xuroson hamda boshqa hududlarga keng eksport qilinishini yozadi[4]. Samarqand qog‘ozi IX–X asrlarda Sharq olamidagi asosiy yozuv materialisi sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, to‘qimachilik ham rivoj topgan bo‘lib, Vador qishlog‘ida tayyorlangan “vadoriy” nomli matolar sifat jihatidan yuqori baholangan va Sharq bozorlarida kata talabga ega bo‘lgan[5]. Somoniylar davridagi kumush dirhamlar esa xalqaro savdo aloqalarida asosiy muomaladagi pul sifatida keng qo‘llangan va birinchi marotaba Nasr ibn Ahmad tomonidan zarb etilgan[6].

Somoniylar davrida Samarqand nafaqat iqtisodiy, balki ilmiy-ma’rifiy markaz sifatida ham shakllandi. Siyosiy barqarorlik va iqtisodiy farovonlik ilmiy hayotning rivojlanishiga qulay sharoit yaratdi. Tadqiqotchi Adam Metsning yozishicha, musulmon sharqidagi dastlabki madrasalar IX–X asrlarda aynan Movarounnahr shaharlarida — Samarqand, Buxoro, Balx va Nishopurda paydo bo‘lgan[7]. Somoniylar davlati O‘rta Osiyoda IX–X asrlarda mustahkam siyosiy va iqtisodiy tizim yaratdi. Ushbu sulola mahalliy aholining madaniy va ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, ilm-fan va san’atning rivojlanishiga zamin tayyorladi. Somoniylar davrida shaharlar, xususan Samarqand va Buxoro, iqtisodiy, savdo va madaniy markaz sifatida o‘z ahamiyatini oshirdi. Samarqanddagi madrasalar nafaqat diniy



ta'lim maktablari, balki falsafa, mantiq, hisob, astronomiya, tibbiyot kabi fanlarni o'rgatiladigan ilmiy markazlarga aylangan. Madrasalar huzurida faoliyat yuritgan kutubxonalar boy qo'lyozma fondi bilan mashhur bo'lgan.

Somoniylar davrida Hanafiylik fiqh maktabi keng tarqalib, Samarqand uning muhim ilmiy markaziga aylangan. Bu esa shaharning diniy-huquqiy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasini ko'rsatadi[8]. Sulola hukmdorlari mahalliy madaniyat va ilm-fanga homiylik qilib, Sharq uyg'onishining rivojlanishiga xizmat qildilar. Ushbu davrda Somoniylar Movarounnahr va Xuroson hududlarida iqtisodiy, ilmiy va madaniy markazlarni shakllantirdi. Abu Abdulloh Jayhoniyni "Ashkol al-alam" asarida Samarqand ahli masjid va madrasalarga vaqf ajratishi, rabotlar qurishda faol ishtirok etishi qayd etiladi.[6]. Bu shaharda xayriya va bunyodkorlik amaliyotlari keng rivojlanganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Somoniylar davrida Samarqand iqtisodiy, madaniy va ilmiy rivojlanishning uyg'un markaziga aylandi. Buyuk Ipak yo'li orqali xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi, Samarqand qog'ozining sifatli va mashhur bo'lishi, hunarmandchilikning ravnaqi shahar iqtisodiyotining poydevorini mustahkamladi. Madrasalar faoliyati, Hanafiylik maktabining shakllanishi va kutubxonalar tarmog'ining kengayishi Samarqandni islom sivilizatsiyasining yirik ilmiy-ma'rifiy o'chog'iga aylantirdi. Natijada Samarqand IX–X asrlarda "Ikkinchi Uyg'onish" davrining asosiy tayanch shaharlaridan biriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ahmedov B. A. O'rta asrlar Movarounnahr tarixi. Toshkent. 1990. 87-96-b.
- 2.Al-Istaxriy. Masalik al-Mamalik. Leiden (tarjima). 1937. 145–150-b.
- 3.Ibn Havqal. Kitab al-Masalik wa-l-Mamalik. Bayrut, (tarjima). 1967. 278-283-b.
- 4.Hudud al-alam. Tarjima: B. Ahmedov. Toshkent. 2002. 112-115-b.
- 5.Ibn al-Faqih. Kitab al-Buldan. Bayrut.(tarjima). 1885. 203-206-b.



6. Barthold, V.V. Turkestan v epokhu mongolskogo nashestiya. Moskva. 1963. c.35–41.
7. Adam Mets. Musulmon Renessansi. Toshkent(tarjima), 1999. 45-52-b.
8. Ahmedov B. A., O'rta asrlar Movarounnahr tarixi. Toshkent. 1997. 92-94-b.